

SHARQSHUNOSLIK RIVOJIDA YEVGENIY EDUARDOVICH BERTELS ILMIY MERO SINING O'RNI

Turobov Bekpulat Nusratullaevich, Samarcand davlat chet tillar instituti ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'lim boshlig'i, dotsent (PhD)

THE ROLE OF SCIENTIFIC HERITAGE EVGENIY EDUARDOVICH BERTELS IN THE DEVELOPMENT OF ORIENTAL STUDIES

Turobov Bekpulat Nusratullaevich, Samarkand State Institute of Foreign Languages Head of the Department of Scientific Research, Innovation and Training of Scientific Pedagogical Personnel, PhD, Associate Professor

РОЛЬ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ ЕВГЕНИЯ ЭДУАРДОВИЧА БЕРТЕЛЬСА В РАЗВИТИИ ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

Туробов Бекпулат Нусратуллаевич, заведующий отделом научных исследований, инноваций и подготовки научных педагогических кадров Самаркандского государственного института иностранных языков, доцент, (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqola sharqshunos Ye.E.Bertelsning Sharq manbashunosligi, falsafa va adabiyotshunoslikni rivojlantirishdagi rolini tahlil qilishga bag'ishlangan. Mashhur sharqshunos E.E. Bertelsning sharqshunoslikni ilmiy fan sifatida rivojlantirishga qo'shgan hissasi ko'rib chiqiladi. Uning ilmiy merosi, shu jumladan Sharq mamlakatlarining fors adabiyoti, tarixi va madaniyatini o'r ganish bo'yicha asarlari bat afsil tahlil qilinadi. Uning metodologik yondashuvlariga va ularning sharqshunoslik sohasidagi keyingi tadqiqotlarga ta'siriga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada Bertelsning Sharqning madaniy va tarixiy rivojlanishi haqidagi zamonaviy g'oyalarni shakllantirish bo'yicha ishlarining ahamiyati, shuningdek, sharqshunoslarning yangi avlodlarini tayyorlashda uning roli ta'kidlangan. Uning tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlari va natijalari, ularning dolzarbligi va zamonaviy fanda qo'llanilishi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: sharqshunoslik, fors adabiyoti, Sharq tarixi, ilmiy meros, uslubiy yondashuvlar, Sharq madaniyati, zamonaviy tadqiqotlar.

Abstract: This article is devoted to the analysis of the role of orientalist E.E.Bertels in the development of Oriental source studies, philosophy and literary studies. The contribution of the famous orientalist E.E.Bertels to the development of Oriental studies as a scientific discipline is considered. His scientific legacy is analyzed in detail, including works on the study of Persian literature, history and culture of the countries of the East. Special attention is paid to his methodological approaches and their impact on subsequent research in the field of Oriental studies. The article emphasizes the importance of Bertels' works for the formation of modern ideas about the cultural and historical development of the East, as well as his role in the training of new generations of orientalists. The main directions and results of his research, their relevance and application in modern science are considered.



[https://orcid.org/
0000-0002-6124-2295](https://orcid.org/0000-0002-6124-2295)
e-mail:
bekpulat2010@mail.ru

Keywords: Oriental studies, Persian literature, Oriental history, scientific heritage, methodological approaches, Oriental culture, modern research.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу роли востоковеда Е.Э.Бертельса в развитии восточного источниковедения, философии и литературоведения. Рассматривается вклад известного востоковеда Е.Э.Бертельса в развитие востоковедения как научной дисциплины. Подробно анализируется его научное наследие, включая труды по изучению персидской литературы, истории и культуры стран Востока. Особое внимание уделено его методологическим подходам и их влиянию на последующие исследования в области востоковедения. В статье подчеркивается значимость работ Бертельса для формирования современных представлений о культурном и историческом развитии Востока, а также его роль в подготовке новых поколений востоковедов. Рассматриваются основные направления и результаты его исследований, их актуальность и применение в современной науке.

Ключевые слова: востоковедение, персидская литература, история Востока, научное наследие, методологические подходы, культура Востока, современные исследования.

KIRISH. Buyuk sharqshunos Yevgeniy Eduardovich Bertels fors-tojik, bir qancha turkiy adabiyotning o‘z zamonasidagi yirik mutaxassisi, shuningdek, u tasavvuf adabiyoti, Firdavsiy, Nizomiy, Fuzuliy, Jomiy hayoti va ijodi, Markaziy Osiyo mutafakkirlari falsafiy merosining ulkan tadqiqotchisi, Sharq xalqlari madaniyati tarixiga doir ilmiy asarlar muallifidir.

Ye.E.Bertels 1890-yilning 26-dekabrida Sankt-Peterburg (Leningrad)da tug‘ilgan. U dastlab Sankt-Peterburg davlat konservatoriyasini tugatdi va 1918-1920-yillarda universitetning Sharq tillari fakultetida tahsil olib, to‘liq kursni o‘tgan va magistrlik imtihonlarini topshirish uchun universitetda qoldirilgan. Shu bilan bir vaqtida u sobiq SSSR Fanlar akademiyasi Osiyo muzeyi ilmiy xodimi sifatida ham faoliyat ko‘rsatdi. Bu muzeyda Ye.E.Bertels uzlusiz o‘ttiz yetti yil, ya’ni umrining oxiri (1957-yil 7-oktyabr)gacha ishlagan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ye.E.Bertels filologiya fanlari doktori, Leningrad davlat universiteti professori, SSSR FA(1939), Eron FA(1944), Turkmaniston FA(1956), Damashqdagi Arab FAAlari muxbir a’zosi edi. 1948-yilda “Nizomiy” monografiyasi uchun 2-darajali davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan [2;5]. U 1942-46-yillarda Toshkentdagi O‘zbekiston FA Til va adabiyot institutida ilmiy xodim, O‘rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O‘zMU) da professor lavozimlarida ishlagan. 1946-yilda Moskvaga ko‘chib kelgan va shu yerda vafot etgan.

Ye.E.Bertelsning ilmiy tadqiqot natijalari quyidagi olti jiddlik asarlarida mujassam:

Birinchi jild – “Fors-tojik adabiyoti tarixi”;

Ikkinci jild – “Nizomiy va Fuzuliy”;

Uchinchi jild – “Tasavvuf va tasavvuf adabiyoti”;

To‘rtinchi jild – “Navoiy va Jomiy”;

Beshinchi jild – “Eron filologiyasi masalalari”;

Oltinchi jild – “Turk filologiyasi masalalari”

[2; 7].

Qariyb qirq yillik ilmiy faoliyati mobaynida Ye.E.Bertels Leningrad universiteti, Leningrad Sharq tillari instituti, O‘rta Osiyo davlat universiteti, Moskva sharqshunoslik instituti, Moskva davlat universitetida fors, tojik, turk, o‘zbek adabiyotidan ma’ruzalar o‘qidi, tillarni o‘rgatdi. Bundan tashqari, olim Sharq xalqlari adabiyotini o‘rganish sohasida ulkan ishlarni bajardi va Sharq filologiyasiga oid uch yuzdan ortiq ilmiy ishlarni tayyorladi. Ye.E.Bertels ilmiy ijodini o‘rgangan A.N.Boldiryov, olimning ilmiy qiziqishlari doirasining kengligini e’tirof etadi. Olim fors-tojik adabiyoti, tasavvuf, Nizomiy, Navoiy va uning zamondoshlari ijodi, Hirot muhitiga mansub shoirlar, Eron va Turk filologiyasining umumiy masalalarini tadqiq qilgan. Ye.E.Bertels nafaqat jahon va mamlakat sharqshunosligi, eronshunosligini bebaho tadqiqotlar bilan boyitdi, balki turkiy tilli xalqlar madaniyati va adabiyotiga doir boy ilmiy meros ham qoldirdi. U XI-XV asrlarda yashab ijod etgan o‘zbek shoirlari fors-tojik mumtoz she’riyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘sghanligini faktlar bilan asosladi.

MAVZUNING METODOLOGIYASI.

Ushbu maqolada analiz, sintez, induksiya, deduksiya, analogiya, germenevtika kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

MUHOKAMA. Ye.E.Bertels turk tilida ijod qilgan Alisher Navoiy, Fuzuliy, Maxtumquli asarlarini fors she’riyati bilan qiyosladi. Shu ilmiy

tadqiqotlar natijasi o'laroq, ko'p asrlar davomida iqtisodiy, siyosiy shart-sharoitlar tufayli shakllangan madaniy va adabiy aloqalardan mustasno tarzda Sharq xalqlari adabiyotini o'rganish mumkin emas, degan xulosaga keldi. Ye.E.Bertels o'zining "O'rta Osiyoda fors tilida yozilgan adabiyot" maqolasida juda ishonchli material asosida Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalarining ijodi o'zaro uzviy aloqada bo'lganligi va o'ziga xosligini ko'rsatib berdi.

Ye.E.Bertelsning g'oyat ulkan va rang-barang ilmiy merosida matnni manba sifatida bevosita tadqiq qilishga asoslangan tarixiy-adabiy va filologiyaga oid ishlari nafaqat son, balki ahamiyati jihatidan ham asosiy o'rin egallaydi. Sharq tillari bilimdoni Ye.E.Bertels nafaqat fors-tojik, balki arab, shu bilan birga bir qancha turk (o'zbek, turkman, ozarbayjon, turk) tillari va adabiyoti materiallari asosida erkin tadqiqotlar olib borish qobiliyatiga ega edi.

Fariddudin Attorning "Bulbulnomा" asaridan qilingan tarjima va Nikolson hamda Nyuberglarning kitoblariga yozilgan ikkita taqriz tufayli Ye.E.Bertelsda ilk bor tasavvuf va tasavvuf adabiyotiga nisbatan katta qiziqish paydo bo'ldi. Ma'lumki, XI asrdan boshlab Sharqning deyarli barcha nufuzli shoir, yozuvchi, mutafakkir va olimlari ijodida tasavvufning yaqqol ta'siri namoyon bo'lgan. Shu davrdagi ijod ahli tasavvuf g'oyalaridan oziqlangan. Shunga e'tibor qaratgan atoqli olim o'tgan asrning boshidayoq quyidagi fikrni bildirgan edi: "Tasavvuf adabiyotini o'rganmasdan turib, o'rta asrlar musulmon Sharqi madaniy hayoti haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin emas. Bu adabiyotdan xabardor bo'lmasdan Sharqning o'zini ham anglash qiyin" [3;54].

Ye.E.Bertels 1924-yildan boshlab 1929-yilgacha, ya'ni Osiyo muzeyi va M.E.Saltikov-Shchedrin nomidagi Davlat ommaviy kutubxonasi qo'lyozmalari ustida ishlagan davrda o'ttiz uchta maqola va qayd (xabarlar)lar yozdi. Ulardan uchiasi ayrim kolleksiya (bir turdag'i narsalarning tizimli to'plami)ning tavsifi, sakkiztasi tasavvufga oid bo'lmagan qo'lyozmalarini tadqiq qilishga bag'ishlangan [2;9-10]. Shunday qilib, tasavvuf, fors va arab tilidagi tasavvuf adabiyotiga oid yigirma ikkita maqola va xabarlar nashr qilingan. Ko'pincha bular ilk bor muallif tomonidan o'qilgan va tushuntirib berilgan matnlar doirasida yaratilgan

etyud (kichikroq ilmiy asar)lardan iborat bo'lib, hajm jihatidan unchalik katta emas. Bu asarlarda Ye.E.Bertels tasavvuf to'g'risida umumiyl xulosalarga keldi, uning tarixiga oid yangidan-yangi ma'lumotlarni maydonga tashladi. Masalan ilmiy ijodning "kichik shakllari"ning haqiqiy durdonasi bo'lgan bu "Ahmad ibn Harb" nomli maqolada (hajmi jihatidan bor-yo'g'i olti betni tashkil etadi) arab matnni a'lo darajada o'qish natijasida ilk bor fors tasavvufining Nishopur (Xuroson) maktabi bilan Iroq maktabi orasidagi aloqalar masalasi qo'yildi. Boshqacha qilib aytganda, fors tasavvufining kelib chiqishi yo'llaridan biri ko'rsatib berildi.

Ye.E.Bertelsning ilmiy faoliyati davridagi barcha maqolalari qaysidir bir masalaga bag'ishlangan bo'lib, natijasi uning yechimini topishga qarab borishdan iboratdir. Shuning uchun ular go'yoki alohida olingan mavzu guruhiya mansubdek tasavvur uyg'otadi. Olimning 1923-1928-yillarda XII asrning oxiri – XIII asrning boshlarida yashab ijod etgan mashhur tasavvuf shoiri Fariddidin Attor qarashlariga bag'ishlab nashr qildirgan beshta maqolasi muayyan guruhiya mansubdir. Bu guruhiya attorshunoslik sohasidagi ikkita yirik asar ham qo'shiladi. Bular tarixiy-qiyosiy tadqiqot hisoblangan "Navoiy va Attor" va Attor qalamiga mansub deb taxmin qilinadigan "Tikuvchi kitobi" poemasining mukammal tahlilidan iborat bo'lgan maqolasidir. Ye.E.Bertelsning so'nggi, 1929-yilda yozilgan tasavvufga doir maqolasida har qanday tasavvuf dostoniga xos bo'lgan yasama hikoya (hayotiy voqealarni hikoya qiluvchilar, oddiy kishilarining kundalik hayotidan olingan latifalar, folklorlardan kelib chiqqan sodda rivoyatlar va boshqalar) shubhasiz yaxlit va to'lig'icha yuksak adabiyotga mansub bo'lmasdan, ular xalqning quyi qatlami doirasida tarqalgan degan, nihoyatda salmoqli ilmiy fikr bildirilgan. Bu tasavvufshunoslikka bag'ishlab 1929-yilda yozilgan so'nggi maqola edi. Bizning nazarimizda mafkura jarayonidagi o'zgarishlar tasavvufga nisbatan salbiy fikrlarning ildiz otishi zahmatkash olimning tasavvuf qirralarini yanada yorqinroq ochishiga muayyan ma'noda monelik qildi. Chunki bu davrda tasavvuf haqida iliq fikrlar bildirish sobiq kommunistik mafkura qolipiga sig'mas, hatto bu haqda ilmiy ijod qilganlarni ham shubha ostida qoldirar edi. Hozirgacha ham tasavvuf

haqidagi asarlari ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan mashhur olim Ye.E.Bertels Sharq adabiyoti bilan tasavvuf ta’limotining chuqur payvastaligini ta’kidlaganligi natijasida, sho‘rolar davrida mafkuraviy tazyiqlar ta’siri doirasida bo‘lgani tabiiy bir hol edi. Tasavvufshunos olim N.Komilov Ye.E.Bertels “Layli va Majnun” dostonidagi ilohiy muhabbat g‘oyasini inkor etgan, degan fikrni bildiradi. Uning e’tirof etishicha, Ye.E.Bertels nazarida bu dostonda asosiy o‘rinda insonga muhabbat, unga hamdardlik va iztiroblarini tasvirlash turadi[7;193]. Navoiy o‘z asarida muhabbatning ilohiy kuchini ko‘rsatishni maqsad qilib qo‘yanligi uchun uning Majnuniga Laylining jismoniy qiyofasi kerak emas. Uning ijobjiy qahramoni Majnun sifatida Layli bilan ma’nnaviy birlashadi. Bu muhabbatning tasavvufiy konsepsiysi hisoblanadi. Ye.E.Bertels esa bu konsepsiyanidan ongli ravishda butunlay voz kechadi. Unga dunyoviylikdan tashqarida bo‘lgan muhabbat emas, balki oddiy insoniy hissiyat kerak. Shuning uchun uning maqsadi real vogelikka yaqinlashishdan iboratdir [9;78]. Bu albatta Ye.E.Bertelsning shu davrda tasavvufga bo‘lgan munosabat “nuqtayi nazari” ta’sirida bo‘lganligini ko‘rsatadi. Balkim sharqshunos olim bu haqda boshqa fikrda bo‘lsa ham, shu davrdagi mafkura qobig‘idan tashqariga chiqa olmas edi.

Sharqshunos olim Ye.E.Bertelsning ilmiy ijodi turli-tuman mavzular bilan xarakterlanadi. Uning ijodida tasavvuf adabiyotini o‘rganish o‘rnini kundalik hayotning dolzarb talablarini aks ettiruvchi mavzular egalladi. Shuni e’tirof etish joizki, 1929-1930-yillardan boshlab, sharqshunoslik sohasida davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan topshiriqlarni bajarish Ye.E.Bertels ilmiy faoliyatida asosiy o‘ringa chiqdi. Bunda olimning maxsus bilimga ega ekanligi, fanning dolzarb vazifalarini chuqur bilganligi qo‘l keldi. Shu yillardan boshlab Ye.E.Bertels ilmiy ijodida asta-sekinlik bilan yettitadan kam bo‘lmagan tadqiqiy mavzular tanlab olingan. Bu mavzulardan har biri turli xarakterga ega bo‘lib, ilmiy ishlarda o‘z nihoyasiga yetgan.

Sho‘ro eronshunosligi, turkshunosligi va qisman arabshunosligi 1934-yilda Firdavsiy, Nizomiy, Navoiy, Ibn Sino yubileylarini o‘tkazishga qaror qildi. Ye.E.Bertelsning bu yubileyarning har birini o‘tkazishda salmoqli hissasi bor. Misol uchun, Ye.E.Bertels Firdavsiy hayoti va ijodi to‘g‘risida

birinchilar qatorida monografiya nashr ettirdi. Bu monografiya nafaqat, Yevropa va hozirgi Eron olimlarining Firdavsiyni o‘rganish natijalaridan ijodiy foydalanganligi tufayli, balki shaxsan olimning bu davr adabiyotini va “Shohnoma”ni o‘qiganligi natijasida yozilgan. Bu ilmiy asarni tayyorlash jarayonida Ye.E.Bertels tomonidan to‘plangan material Somoniylar Buxorosida Firdavsiy davri adabiyoti to‘g‘risida yirik, mukammal tadqiqotning yakunlanishiga asos bo‘ldi. Har ikkala monografiyada sho‘ro eronshunosligida birinchilardan bo‘lib, hozirgi zamon adabiy tahlili tajribalarining o‘rtalari asr fors adabiyoti materialiga qo‘llanganligini ko‘rish mumkin [2;12].

Ye.E.Bertelsning 1939-yilda Nizomiy, 1940-yilda esa Navoiyning hayoti va ijodi to‘g‘risidagi tadqiqotlari nashr ettirildi. Nizomiy mavzusi, aytish mumkinki, Ye.E.Bertelsning ilmiy ijodida markaziy o‘rinni egallaydi. Olimning Nizomiy to‘g‘risida talaygina asarlari bo‘lib, sho‘ir ijodini o‘rganish bo‘yicha asosiy vazifalarining anchagina qismi hal qilingan. Ye.E.Bertelsning ilmiy tadqiqot natijalari uning birinchi darajali asarlarida jamlangan. Bularda olim tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar asosida Nizomiy asarlarining matni tanqidiy o‘rganildi. Eng oxirgi monografiyasida buyuk Ozarbayjon sho‘iri Nizomiyning hayoti, ijodi o‘rganildi va tahlil qilindi. Bu monografiyanı tayyorlashda Ye.E.Bertels umrining yigirma yilini sarfladi. O‘zining tugalligi, metodologiyasi, ishonchli materialning boyligi jihatidan bu asar boshqalari orasida eng yaxshisi va mukammali hisoblanadi.

O‘zbekistonlik navoiyshunoslari Ye.E.Bertelsning Alisher Navoiy ijodi ustida olib borayotgan tadqiqotlari bilan qiziqib qoldilar va uni 1930-yilda ma’ruza o‘qish uchun Samarqand (O‘zbekistonning sobiq poytaxti) shahriga taklif qildilar. Ma’ruza tugashi arafasida olim Norkompross (xalq ta’limi vazirligi)ga chaqiriladi va undan xorijiy mamlakatga sotishga mo‘ljallangan qo‘lyozmalarni ko‘rib chiqish so‘raladi. Ye.E.Bertels qo‘lyozmalarni ko‘zdan kechirayotgan paytida, nogahon nigohi juda titilib ketgan kattakon jildga tushadi. Bu jildni oolib qarasa, juda qorayib ketgan yoki maxsus qora rangga bo‘yalgan qog‘oz, xunuk, ammo XV asrning behad shoshib bitilgan dastxatini ko‘radi. Bu Navoiyning mashhur besh dostoni majmui “Xamsa” edi. Olim bunday qo‘lyozmani aslo bozorda sotish mumkin emas,

degan xulosaga keladi [1;441]. Shu bilan Alisher Navoiyning “Xamsa”si chetga sotilishdan asrab qolnadi.

Ikkinchi jahon urushi yillarda Ye.E.Bertels Toshkentdagi tarix, til va adabiyot institutida ishladi. Navoiyshunos olim bu institutda chetga olib ketishdan asrab qolgan qo‘lyozmaga duch keldi. Endi u Navoiyning “Xamsa”sin shoshilmasdan, xotirjam va astoydil o‘rganishga jazm qildi. Samarali izlanishlar natijasi o‘laroq bu qo‘lyozmani shoirning o‘zi aytib yozdirgan, degan xulosaga keldi.

Xususan, Ye.E.Bertels Toshkentdagi qo‘lyozmalarning boyligidan hayratlangan va “Fors adabiyoti tarixi”ni yozishda bu qo‘lyozmalar muhim ahamiyatga ega ekanligini e’tirof etgan edi. Fors adabiyotini o‘rganish jarayonida sharqshunos olim shu davrga oid nihoyatda qiziqarli ilmiy xulosalarni qildi va tadqiqot predmetiga taalluqli ba’zi fikrlarni ilgari surdiki, bular muhim metodologik ahamiyatga egadir. Xususan, olim olib borgan tadqiqotlar natijalari asosida fors adabiyotining turg‘unligi to‘g‘risida mavjud nazariya mutlaqo noto‘g‘ridir, degan xulosaga keldi. Shuning uchun bu olim davr adabiy muhiti, fors adabiyoti to‘g‘risida to‘laqonli ma’lumot berishga intildi.

Garchand Ye.E.Bertelsning ilmiy tadqiqotlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘rganish asosiy mavzu hisoblangan bo‘lsa ham, temuriylar davri o‘zbek adabiyotining buyuk vakillari ham uning nazaridan chetda qolmadi. U birinchi bo‘lib, Sakkokiy, Atoiy, Lutfiy, Sulton Husayn haqida fikrlar bildirdi. Shu davr o‘zbek she’riyati texnikasi mohiyatini ochib bergen Ye.E.Bertelsning ilmiy salohiyati munosib bahoga arziydi.

Navoiy hayoti va ijodini o‘rganish Nizomiyni o‘rganish bilan bir vaqtida olib borildi. Bu sohaga ham sharqshunos olim katta qiziqish bilan qaradi va ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. Navoiy uning o‘tmishdoshlari va zamondoshlarining adabiy merosini tezlik bilan dastlabki tadqiq qilish Ye.A.Bertelsning o‘z ta’rifi bilan aytganda “Shoir ijodiy tarjimai holi tajriba”si to‘g‘risida yakunlovchi asarning yozilishiga olib keldi. Bu ishda muallif Navoiy “ijodiy tarjimai holi tajribasi” doirasidan chiqib, nigohini uzoqroq moziyga qaratadi, ya’ni ilk bor Navoiy ijodiy faoliyatidan oldingi Xuroson va Markaziy Osiyo adabiy hayotiga tavsif berdi, XV asr poetik texnikasini yoritdi. Shuning uchun ham bu asar hozirgacha mo‘g‘ul bosqinidan keyingi

davrdagi fors adabiyoti poetikasi bo‘yicha muhim ma’lumotlar qo‘llanmasi hisoblanadi [2;13].

Ye.E.Bertels jahon sharqshunosligi adabiyotidagi murakkab va jiddiy masalaga qo‘l urdi. Shu paytgacha birorta olim o‘z ilmiy ijodida bunday muhim mavzuni yoritmagan edi. Sharqshunos olim tomonidan Amir Xisrav Dehlaviy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy “Xamsa”lari qiyoslandi va tahliliy o‘rganildi. Bu asarlardagi yutuq va kamchiliklar ishonchli dalillar orqali asoslab berildi.

Ye.E.Bertels “Navoiy va uning davri” mavzusi ustida ishslash jarayonida unda shoirning zamondoshi va do‘ssti Abdurahmon Jomiy haqida ham asar yaratish fikri tug‘ildi. Turkiy xalqlar adabiyotshunosligi sohasida ham ulkan ilmiy meros qoldirgan Ye.E.Bertels o‘zbek mumtoz adabiyoti asoschisi Alisher Navoiyning piri va ustozи Abdurahmon Jomiy ijodiga bag‘ishlangan yuksak ilmiy saviyadagi monografiya, maqola hamda taqrizlar yozdi. Ye.E.Bertelsning Abdurahmon Jomiy haqida birinchilardan bo‘lib yozgan maqolasi uning pok nomini tikiadi. Bu haqda u shunday yozadi: “Jomiyni hozirgacha ta’kidlanib kelinayotgandek, faqat taqlidgo‘y, mumtoz shoirlarning yomoni deb atash adolatdan emas. Uning ijodini davr nuqtayi nazaridan o‘rganish Jomiyni tojik mumtoz adabiyotini muqarrar o‘limdan asrab qolishga, uni issiqxonha sharoitida zavq-shavqsiz yashashga mahkum etgan tor doiradan olib chiqishga jon-jahdi bilan harakat qilgan o‘ziga xos islohotchi sifatida e’tirof etish lozim”, degan xulosaga olib keladi [4;99-100].

Ye.E.Bertels musulmon o‘rta asri davrida Iskandar (Aleksandr) haqida yozilgan romanning tarixiy taqdiri haqida ilmiy tadqiqotlar olib bordi va “Iskandar to‘g‘risida roman va uning Sharqdagi asosiy versiyalari (rivoyatlari)” nomli asarini chop ettirdi. Olimning ushbu ishi Old va Markaziy Osiyo xalqlari madaniy hayotida katta rol o‘ynagan adabiy syujet tarixini mufassal diaxronik (tarixiy tadrijiylik) tadqiq etishning yuksak namunasidan iboratdir. Ye.E.Bertels romanning ko‘p sonli versiyalarini oqilona tarzda taqqoslab chiqdi. Bunda olimga betakror iste’dodi, matnlarni fenomenal (noyob) o‘qiy olish qobiliyati yordam berdi, shuning uchun hayratlanarli va kutilmagan natijalarga erishdi.

Ma’lumki, X asrga kelib Markaziy Osiyoda fanning rivojlanishi nafaqat xalifalik, balki dunyo

miyosida birinchi o‘ringa ko‘tarildi. Bu davrda Markaziy Osiyodan tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida buyuk mutafakkirlar, muhaddislar, mutassavvuflar yetishib chiqdilar. Shu davrning buyuk qomusiy olimlaridan biri Abu Nasr Forobiy (873-950)dir.

Forobiyning merosi g‘ayrioddiy ulkan va turlitumandir. U o‘z davrida ma’lum ilm sohalarini o‘rgandi. Mutafakkir eng avvalo, Arastuning shahrlovchisi sifatida mashhur edi. Shuni e’tirof etish joizki, - deb yozadi Ye.E.Bertels, - Forobiyning bu ishini asliyatdan uzoq va taqlid qilish, deb qarash kerak emas [1;112]. Faylasuf olim Q.Nazarov fikrlari sharqshunos olimning xulosalarini yanada muayyanlashtiradi. U Abu Nasr Forobiyni qadimgi mualliflarning oddiy sharhlovchisi sifatida talqin etish adolatdan emas, deb hisoblaydi [8;101].

XULOSA. Ye.E.Bertels o‘z o‘tmishdoshlari ning asarlari manbalar asosida yozilganligiga katta ahamiyat berar, ma’lumotlarni boshqa kitoblardan olgan olimlarni qattiq tanqid qilar edi. Uning ushbu kinoyasi shu toifadagi olimlarga qaratilgan. Misol uchun, Gyote yoki Shekspir asarlarini o‘qimasdan, butunlay faqatgina boshqalarning yozganlariga asoslanib ular haqidagi monografiya yozgan olim to‘g‘risida nima ham deyish mumkin, degan savol qo‘yib, uni ilm fidoyilar muhokamasiga havola qildi. Ye.E.Bertels o‘z xulosalarini shakkantirishga ham juda tanqidiy yondashgan, ta’rifni voqelikka aynan mos berishga intilgan. Shu bilan turli madaniyatlar, jumladan, fors va arab xalqlari madaniyati o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni ko‘rsatgan. U o‘zaro aloqalarining shakli va yo‘lini mufassal, aniq tadqiq qiladi. Ammo, uning fikricha, arab poeziyasining rolini haddan tashqari oshirish kerak emas. Shuningdek, tamomila zid nuqtayi nazarda turib, arab poeziysi forsiy (dariy) poeziyasi shakllanishiga hech qanday ta’sir ko‘rsatmagan, deb tasdiqlash ham aslo mumkin emas, deydi. Shuning uchun Ye.E.Bertelsning krititsizmi (tanqidiy nuqtayi nazar) nigelizm va skeptitsizm bilan hech qanday umumiylilikka ega emas. Uning krititsizmi muhim, daliliy ijobiy xulosalarga olib keladi. Konsepsiyaning aniqligi va qat’iy krititsizm Ye.E.Bertels asarlarining ikkita asosiy xususiyatidir [6;20].

Bu olim Sharq xalqlarining o‘zaro yaqin iqtisodiy va madaniy aloqalarini e’tiborga olish tarafdori bo‘lgan. Ayrim tadqiqotchi va olimlar Sharq madaniyati va adabiyoti o‘zaro ta’sirini butunlay inkor

etishga harakat qilganlar. Ammo Ye.E.Bertels ularning g‘ayriilmiy konsepsiyalarini qo‘llab-quvvatlamagan. Uning fikricha, “O‘zaro ta’sirlarni e’tiborga olish kerak. O‘zlashtirish hodisasining o‘zi emas, balki uning sabablari, xususan, o‘zlashma materialning yangi joyda boshdan kechirgan o‘zgarishlari ham qiziqarli”dir [5;15].

Xullas, sharqshunos olim Ye.E.Bertelsning ijodi o‘zining serqirraligi, originalligi bilan ajralib turadi va undan ilmiy tadqiqotlarda muhim manba sifatida foydalanish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бертельс Е.Э. Древнейшая рукопись “Пяти поэм” Алишера Навои.// Е.Э.Бертельс. Избранные труды. Навои и Джами. Том 4. Издательство “Наука”. Главная редакция Восточной литературы. Составитель и редактор. Э.Р. Рустамов. М. 1965.
2. Бертельс Е.Э. Избранные труды. История персидско-таджикской литературы. Том.1. Издательство Восточной литературы. Отв. ред. И.С.Брагинский. М.1960.
3. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. Том 3. Издательство «Наука». Главная редакция Восточной литературы. Отв. ред. А.Н.Болдырев. М.1965.
4. Бертельс Е.Э. Жомий. Рус тилидан И.Мирзаев таржимаси. С.: СамДУ. 2010.
5. Бертельс Е.Э. К вопросу о филологической основе изучения восточных памятников.// Советское востоковедение, № 3, 1995.
6. Брагинский,И.С. Научное наследие Евгения Эдуардовича Бертельса.//Бертельс,Е.Э. Избранные труды. История персидско-таджикской литературы. Том.1. Издательство Восточной литературы. Отв. ред. И.С.Брагинский. М. 1960.
7. Комилов Н. Тасаввуф. Тошкент. Movarounnahr - O‘zbekiston. 2009.
8. Назаров Қ. Ўзбек фалсафаси. Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти. Тошкент-2013.
9. Туробов Б.Н. Алишер Навоий маънавий мероси Е.Э.Бертельс талқинида. Монография. - Самарқанд: “Самарқанд давлат чет тиллар институти” нашриёти, 2022. – 125 бет.
10. Халиева Г.И. “Лейли и Меджнун” Алишера Навои в интерпретации Е.Э. Бертельса./ Имагология и компаративистика.2018.№ 10.Б.78.